XALQARO IQTISODIY KO`RSATKICHLARDA AUDIT TEKSHIRUVLARINING NATIJALARINI VA BUXGALTERIYA HISOBOTLARINING IQTISODIY TAHLILINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA AKS ETTIRISHNING DOLZARBLIGI

Raxmonova Zebiniso Abdihalimovna

e-mail: zebinisoraxmonova1@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada audit tekshiruvlarini xalqaro standartlar asosida olib borishning mohiyati, usullari va boshqichlarining alohida ahamiyati, Xalqaro standartlar asosida audit tekshiruvlarini olib borishning usullari, yirik xalqaro audit kompaniyalarining oxirgi yillarda ishlab chiqqan innovatsion usullarining keng qamrovli tahlillari va albatta Xalqaro standartlarga o`tish davrining hozirgi holati haqida alohida ta`kidlab o`tilgan.*

Kalit sozlar: *Xalqaro audit standartlari, audit tekshiruvlarining a`nanaviy, zamonaviy va xalqaro usullari, innovatsion usullar, xalqaro standartlarga o`tish boshqichlari, audit dalillari, audit, tahlil jarayoni.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются сущность, методы и особая значимость этапов проведения аудиторских проверок в соответствии с международными стандартами. Также проводится комплексный анализ методов аудита, применяемых в соответствии с Международными стандартами аудита, инновационных подходов, разработанных в последние годы ведущими международными аудиторскими компаниями, а также современного состояния процесса перехода на международные стандарты.*

Ключевые слова: *Международные стандарты аудита, традиционные, современные и международные методы аудита, инновационные подходы, этапы перехода на международные стандарты, аудиторские доказательства, аудит, процесс анализа.*

Annotation. *This article examines the essence, methods, and the particular importance of the stages of conducting audit engagements in accordance with international standards. It also provides a comprehensive analysis of audit methods applied under International Standards on Auditing, innovative approaches developed in recent years by leading international audit firms, as well as the current state of the transition process to international standards.*

Keywords: *International auditing standards, traditional, modern and international audit methods, innovative approaches, stages of transition to international standards, audit evidence, auditing, analytical process.*

Kirish. Hozirgi kunda davlatimiz barcha sohalarda o`zining ilg`or harakatlari va muvaffaqqiyatlari yordamida Xalqaro minbarlarda alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Davlatimiz rivojlanib kelyotgan yosh davlatlar miqiyosida o`z o`rni va ahamiyatiga ega. Sababi davlatimizning dunyoga mashhur tarixi va buyuk kelajagini inkor qilib bo`lmaydi. Shuni doimo ta`kidlab o`tishimiz lozimki, barcha davlatlar xorijiy bozorlarda o`z o`rniga ega bo`lishi uchun eng muhim tamoyillardan biri sifatida davlat iqtisodiy holatining ahamiyatiga alohida e`tibor berishimiz lozim. Davlatimizning iqtisodiy holatini esa unda faoliyat olib borayotgan barcha davlat va nodavlat tashkilotlarining iqtisodiy holati belgilab beradi. Barcha tashkilot va korxonalarning iqtisodiy holati esa o`ziga juda keng miqyosda iqtisodiy ko`rsatkichlarni qamrab oladi. Bu ko`rsatkichlarning esa xorijiy bozorlarga taqdim qilishimizda bizga yordam beradigan unsurlardan biri sifatida Buxgalteriya hisobotlarini va audit tekshiruvi natijalarini xalqaro standartlar asosida tuzish hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi kundagi asosiy iqtisodiy vazifalarimizdan biri sifatida Xalqaro standartlarning ahamiyatini yanada keng targ`ib qilish va Xalqaro standartlarga o`tishdagi harakatlarning ilg`orligini ta`minlashdir.

Asosiy qism. Har bir sohada global rivojlanish va o`sishning ahamiyati yanada chuqurroq ta`kidlanayotgan bir zamonda audit tekshiruvlarini xalqaro standartlar asosida o`tkazish, xalqaro bozorlarda o`z o`rnini egallash uchun har bir davlat iqtisodiyoti uchun yanada ahamiyatliroq bo`lib bormoqda. Shuning uchun ham audit

tekshiruvlarini olib borishdagi an`anaviy, xalqaro va zamonaviy usullariga alohida to`xtalib o`tishni maqsad qilib qo`ydik.

Audit tekshiruvining an’anaviy usullari — bu auditorlar tomonidan uzoq yillar davomida qo‘llanib kelinayotgan, ishonchliligi amaliyotda sinovdan o‘tgan tekshiruv yondashuvlaridir. Ushbu usullar asosan hujjatlar, hisob-kitoblar va xo‘jalik operatsiyalarini tekshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Audit tekshiruvining zamonaviy usullari — bu axborot texnologiyalari, raqamli tahlil va avtomatlashtirish vositalariga asoslangan, an’anaviy auditni yanada samarali, tezkor va aniq bajarishga xizmat qiluvchi yondashuvlardir. Ushbu usullar ayniqsa katta hajmdagi ma’lumotlarni (Big Data) tahlil qilish, xatolar va firibgarliklarni erta aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Audit tekshiruvlarini olib borishda foydalaniladigan zamonaviy hamda an`anaviy usullarni ma`lum me`yorlar asosida solishtirib, tahlilini olib bordik va quyidagi jadvalga joylashtirdik. Bunga ko`ra har ikkala usul haqida aniq, kerakli jihatlarni inobatga olgan holda va samarali ma`lumot olishingiz, solishtirishiningiz va ularning ahamiyatini yanada tushunib olishingiz mumkin.

Xalqaro standartlar asosida audit tekshiruvlari (xususan, ISA – International Standards on Auditing) auditorlik jarayonini tizimli, ishonchli va sifatli tashkil etishni talab qiladi. Shu sababli auditda an’anaviy va zamonaviy usullar uyg‘unlashgan holda qo‘llanadi. Quyida barcha usullarning qisqacha tasnifi, afzalliklari va kamchiliklariga alohida to`xtalib o`tilgan. Zamonaviy usullarning ham, an`anaviy usullarning ham o`ziga yarasha kamchiliklari bo`lganligi uchun xalqaro audit tekshiruvlarida eng optimal usullar, ularning kamchiliklari va keltiradigan foydalariga ko`ra tanlab olinib qo`llaniladi. Shuning uchun ham xalqaro audit o`tkazish usullarini har tomonlama mukammal deb ayta olamiz.

Quyidagi jadvalda audit tekshiruvini o`tkazishda q`ollaniladigan usullar bir nechta xususiyatlar asosida solishtirilgan va keltirib o`tilgan.

Mezon	An’anaviy audit usullari	Zamonaviy audit usullari
Yondashuv	Qo‘lda va hujjatlarga asoslangan	Raqamli va texnologiyalarga asoslangan
Ma’lumotlar hajmi	Tanlab olingan (sample) ma’lumotlar	To‘liq yoki katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data)
Tezkorlik	Sekin, ko‘p vaqt talab qiladi	Tezkor, real vaqtga yaqin
Aniqlik darajasi	Inson omiliga bog‘liq	Yuqori aniqlik, avtomatlashtirilgan
Asosiy vositalar	Qog‘oz hujjatlar, kalkulyator	Maxsus dasturlar, AI, analitik platformalar
Xatolarni aniqlash	Cheklangan, kech aniqlanishi mumkin	Erta va samarali aniqlash imkoniyati
Audit turi	Davriy (ma’lum vaqtda o‘tkaziladi)	Uzluksiz (continuous auditing)
Auditor roli	Tekshiruvchi va nazoratchi	Tahlilchi va strategik maslahatchi
Moslashuvchanlik	Past	Yuqori, tez o‘zgarishlarga moslashadi
Xarajatlar	Nisbatan arzon, lekin vaqt talab qiladi	Dastlab qimmat, lekin uzoq muddatda samarali
Masofadan ishlash	Deyarli imkonsiz	To‘liq imkoniyat mavjud (remote audit)

Tadqiqot doirasida 20 nafar auditorlar orasida o`tkazilgan so `rovnoma natijasida ham auditorlarning fikrlariga binoan audit tekshiruvlari usullarining eng samaralisi deb(an`anaviy usullar 20%, zamonaviy IT usullari 35%, xalqaro ISA usullari 45%) xalqaro usullar tanlanganligi ham e`tiborimizni jalb qiladi. Demak audit tekshiruvlarini xalqaro standartlar asosida o`tkazish uchun yana bir muhim sabablardan biri deb olsak bo`ladi.

Davlatimiz 2013-yilda milliy standartlardan bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga o`tish yo`lini tanlagan va shu asosida qonunchilik, institutsional islohotlar va amaliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladigan o`z rejasini tuzib chiqib, shu reja asosida amalga islohotlar olib borib kelmoqda. Quyida ushbu jarayon bosqichlar va amaliy ishlar kesimida to‘liq bayon etiladi:

- Dastlabki bosqich (milliy standartlar asosida shakllanish). Bu davrda milliy standartlar xalqaro standartlar asosida ishlab chiqildi, auditorlik faoliyati har tomonlama tartibga solindi, audit tekshiruvlari va auditorlik kasbi shakllanishni boshladi.
- Xalqaro standartlarga yaqinlashuv bosqichi (2010–2018 yillar). O`zbekiston xalqaro standartlarga moslasha boshladi, auditorlarning malakasi oshirish tizimi yo`lga qo`yildi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo`lga qo`yildi.
- Faol islohotlar bosqichi (2018–2021 yillar). Bu boshqich ng muhim bosqich hisoblanib, prezident qarorlari qabul qilindi, auditni xalqaro standartlar asosida o`tkazish majburiyati joriy qilindi, ISA o`zbek tiliga tarjima qilindi, yirik korxonalar uchun xalqaro audit talablari belgilandi, O`zbekiston audit tizimi xalqaro audit tizimiga integratsiyalasha boshladi.
- Institutsional islohotlar bosqichi (2021–2025 yillar). Bu bosqichda tubdan yangilanish boshlandi ya`ni, auditorlik to`g`risida yangi qonun qabul qilindi, auditorlarni litsenziyalash tizimi bekor qilindi, sertifikatlash tizimi zamonaviylashdi, audit tashkilotlarining soni va sifati oshdi, natijada audit bozori liberallashdi va raqobat kuchaydi.

- Raqamlashtirish va zamonaviylashtirish bosqichi (2025–hozirgi davr). Bu bosqich esa auditni to`liq xalqaro darajaga olib chiqishga qaratilgan. Audit elektron platformasi joriy qilindi, xalqaro metodologiya sohasida audit tizimi takomillashtirmoqda, maxsus hisob va audit metodologik kengashi tashkil etildi. Hisob palatasi faoliyati xalqaro standartlarga o`tkazilmoqda, riskka asoslangan audit joriy qilindi va 2025-yil ilk bor xalqaro standartlar asosida audit tekshiruvi o`tkazildi.

- Kadrlar tayyorlash va xalqaro integratsiya. Bu boshqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlardan biri auditotrlar uchun xalqaro sertifikatlar joriy qilinmoqda, 2026-yildan bohlab auditorlik maktablari tashkil etilmoqda, xorijiy auditorlik tashkilotlari bilan hamkorlik kengaymoqda.

Shuni bemalol ayta olamizki, davlatimizda xalqaro audit standartlariga o`tish uchun tamoyillar asosida kerakli qadamlar qo`yildi va yana olg`a harakat qilishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Appelbaum D., Kogan A., Vasarhelyi M., Yan Z. Impact of business analytics and enterprise systems on managerial accounting // *International Journal of Accounting Information Systems*. – 2017. – Vol. 25. – P. 29–44.

2. Brown-Liburd H., Vasarhelyi M. A. Big data and audit evidence // *Journal of Emerging Technologies in Accounting*. – 2015. – Vol. 12, No. 1. – P. 1–16.

3. Deloitte Global. Global Audit Quality Report 2022–2023. – London: Deloitte Touche Tohmatsu Limited, 2023.

4. Ernst & Young. EY Global Audit Quality Report 2023. – London: EYGM Limited, 2023.

5. KPMG International. KPMG Global Audit Quality Report 2023. – Zurich: KPMG International Cooperative, 2023.

6. PricewaterhouseCoopers. PwC Global Audit Quality Report 2023. – London: PricewaterhouseCoopers International Limited, 2023.

7. IFAC (International Federation of Accountants). Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. – New York: IAASB, 2022.

8. Knechel W. R., Salterio S. E. Auditing: Assurance and Risk. – 4th ed. – London: Routledge, 2016.

9. Vasarhelyi M. A., Kogan A., Tuttle B. M. Big data in accounting: An overview // *Accounting Horizons*. – 2015. – Vol. 29, No. 2. – P. 381–396.

10. Toshmatov A., Yusupov B. O‘zbekistonda xalqaro audit standartlarini joriy etish muammolari // *Moliya va hisob*. – 2021. – №3(18). – B. 45–58.

11. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020-yil 1-aprel, №614.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – 2022-yil 14-noyabr, PF–431.